“O‘zkimyosanoat” AJda Germaniyaning “Linde” kompaniyasi vakillari bilan navbatdagi uchrashuv bo‘lib o‘tdi

// 13 June 2023 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/havoni-taqsimlash-uskunasini-urnatish



Joriy yilning 13-iyun kuni “O‘zkimyosanoat” AJda Germaniyaning “Linde” kompaniyasi vakillari bilan “Navoiyazot” AJda “Havoni taqsimlash uskunasini o‘rnatish” loyihasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan navbatdagi uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Unda “Linde Group” kompaniyasining ijrochi vitse-prezidenti Sean Durbin ham qatnashdi. Uchrashuvda mazkur istiqbolli loyihani amalga oshirish bo‘yicha qilinayotgan ishlar va kelgusida bajarilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Shuningdek, uchrashuv davomida so‘nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimiz kimyo sanoatida ulkan islohotlar olib borilayotganligi va buning natijasida amalga oshirilayotgan yirik, istiqbolli investitsiya loyihalari soni ortib borayotganligi alohida ta‘kidlandi.



Eslatib o‘tamiz, joriy yilning 2-may kuni Berlinda o‘tkazilgan O‘zbekiston-Germaniya biznes forumi doirasida “Navoiyazot” AJ va “Linde” kompaniyasi o‘rtasida majmuaning ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun “Navoiyazot” AJda “Havoni taqsimlash uskunasini o‘rnatish” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma korxona tashkil etish loyihasini amalga oshirish bo‘yicha kelishuv ham imzolangan edi.

Mazkur loyihada “Linde” asosiy investor - asosiy aktsiyador - 51% va loyihaning asosiy pudratchisi sifatida ishtirok etadi. Dastlabki hisob kitoblarga ko‘ra loyiha qiymati 90 million AQSH dollarini tashkil etadi, u 800 ming m3 dan ortiq gazsimon kislorod va azot ishlab chiqarishni ko‘zda tutadi. Loyihani 2026-yilning birinchi choragida foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.



Loyihani amalga oshirish natijasida “Navoiyazot” AJ hududida 1964 va 1971-yillarda foydalanishga topshirilgan mavjud “Havoni taqsimlash uskunasi” o‘rnini zamonaviy uskuna egallaydi va majmua yiliga 91 million kVt/soat elektr energiyasini tejash imkonini beradi.

Ma’lumot o‘rnida aytib o‘tamiz, “Linde” kompaniyasi sanoat va tibbiy gazlarni ishlab chiqarish bo‘yicha dunyodagi yetakchi kompaniyalardan biri bo‘lib, dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida faoliyat yuritadi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati